

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 244-04-85, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

Sana: 24-09-2024 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

217097 - SONLI

Obyekt nomi: Мавжуд “ғишт заводи” объектини “кўп қаватли турар-жой, апартамент бинолари, бизнес маркази ва савдо, маиший хизмат кўрсатиш мажмуаси”га ихтисослаштириб реконструкция қилинаётган объектни муҳандислик тармоқлари билан таъминлаш.	
Buyurtmachi:	THE BEST STROY MCHJ
Bosh loyihachi:	"ARCHITECTURAL ERA" mas'uliyati cheklangan jamiyati
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender asosida aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	016776

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2019-yil 15-noyabrda berilgan 14177676/1-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2024-yil 9-fevraldagi 1726-1726269-177601-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2020-yil 8-maydagi 874T-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.4. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2023-yildagi buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.5. "GEO ENGINEERING LOYIHA" MCHJ tomonidan 2022-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

1.6. "GEO KADASTR" MCHJ tomonidan 2023-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

1.7. "PRO-GEO Tashkent" MCHJ tomonidan 2023-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining geotexnik hisoboti.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T. O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti tomonidan 2023-yil 17-noyabrdagi №813-3-sonli xulosasi.

1.9. Belgilangan tartibda 2023-yil 27-fevraldagi №1-sonli buyurtmachi va loyiha tashkilot o'rtasidagi kelishuv shartnomasi.

1.10. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ "Toshkent shahar hududiy filiali" tomonidan 2023-yil 11-noyabrda berilgan №42/911-ΓY-sonli texnik sharti.

1.11. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ "Toshkent shahar hududiy filiali" tomonidan 2024-yil 17-aprelda berilgan №05-0699-sonli texnik sharti.

1.12. "Toshkent shahar suv ta'minoti" MCHJ tomonidan 2022-yil 28-oktyabrda berilgan №270/4-3080-sonli texnik sharti.

1.13. "Hududgaz Poytaxt" Gaz ta'minoti filiali tomonidan 2023-yil 15-noyabrda berilgan №042747-sonli texnik sharti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra "ishchi loyiha" ning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

- Bosh reja (GP)
- arxitektura yechimlari (AR);
- konstruktiv yechimlar (KJ);
- ichimlik suvi va oqava suv tarmog'i (VK);
- isitish va shamollatish tizimi (OV);
- elektr ta'minoti (ES);
- elektr qismi (EL);
- yong'in signalizatsiyasi (PS);
- video kuzatuv tizimi (VN);
- gaz ta'minoti (GSV);
- tashqi gaz ta'minoti (GSN);
- avtomatik yong'in o'chirish tizimi (APT);
- Tushuntirish xati;
- konstruktiv hisosbot;

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino:

Qurilish hajmi: 312477.5 m³

Bino qavati: 16

Qurilish maydoni: 22996.08 m²

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Normativ shamol bosimi - $W_0 = 0,38$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50$ kPa.

Tumanning zilzilabardoshligi - 8 ball.

Tuproq - Soz tuproq (suglinok) loessga o'xshash, jigarrang rangda, makro o'zakli.

Tuproq cho'kuvchanligi bo'yicha toifasi - II tip.

Yer osti suvlari eng yuqori ko'tarilishi 28.5 m chuqurlikda kuzatiladi.

Tuproqning muzlash chuqurligi - 0,70m.

3.2. Bosh reja.

Ushbu ob'ekt Toshkent shahar Ulug'bek tuman Oltintepa ko'chasi 166-uy manzilda joylashgan. Ushbu hududda 8 dona 16 qavatli ko'p qavatli turar-joy binosi va bundan tashqari qurilishi quyidagilar ko'zda tutilgan:

- Besedka;

- Futbol maydonchasi;
- basketbol maydonchasi;
- favvora;
- chiqindi yig'ish maydoni;
- transformator podstantsiyasi;

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Umumiy maydoni - 21533.7 m^2 ;

Qurilish maydoni - 7373.3 m^2

Qoplamalar maydoni - 10562.4 m^2 ;

Yashil maydon - 3598.0 m^2 ;

3.3. Arxitektura - qurilish yechimlari.

16 qavatli bino (Blok A-1) - murakkab shaklida bo'lib, rejada o'qlar oraliq o'lchami $40.5 \times 27.7 \text{ m}$. 1 va 2-qavatlarda I-L o'qlar oralig'ida 6.8 m kengaytirilgan. Yerto'la 1-qavat balandligi - 4.75 m ; 2-qavat balandligi - 4.25 m ; (poldan polgacha), 1-qavat balandligi - 4.7 m , 2-qavat balandligi - 4.8 m , 3-qavatdan yuqori qavatgacha balandligi 3.3 m tashkil etadi. (poldan polgacha).

Turar-joy binosida 28 ta 1 xonali, 56 ta 2 xonali, 56 ta 3 xonali, jami 140 ta xonadon mavjud.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Qurilish maydoni - 1347.44 m^2

Umumiy maydoni - 19986.88 m^2 ;

Xonalarning umumiy maydoni - 8982.75 m^2 ;

Qurilish hajmi - 71177.81 m^3 ;

16 qavatli bino (Blok A-2) - murakkab shaklida bo'lib, rejada o'qlar oraliq o'lchami $43.6 \times 2.7 \text{ m}$. 1 va 2-qavatlar 11 va 6-o'qlar oralig'i va I-L o'qlar oralig'i 6.8 m ga kengaytirilgan. Yerto'la 1-qavat balandligi - 4.75 m ; 2-qavat balandligi - 4.25 m ; (poldan polgacha), 1-qavat balandligi - 4.7 m , 2-qavat balandligi - 4.8 m , 3-qavatdan yuqori qavatgacha balandligi 3.3 m tashkil etadi. (poldan polgacha).

Turar-joy binosida 28 ta 1 xonali, 56 ta 2 xonali, 56 ta 3 xonali, jami 140 ta xonadon mavjud.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Qurilish maydoni - 1340.04 m^2

Umumiy maydoni - 19287.3 m^2 ;

Xonadonning umumiy maydoni 8982.75 m^2 ;

Qurilish hajmi 71285.61 m^3 ;

16 qavatli bino (B-4/1, B-4/2, B-4/3, B-4/4, B-4/5, B-4/6 bloklar) - murakkab shaklida bo'lib, rejada o'qlar oraliq o'lchami $19.6 \times 17.2 \text{ m}$. Yerto'la 1-qavat balandligi - 4.75 m ; 2-qavat balandligi - 4.35 m ; (poldan polgacha), 1-qavatdan- 16-qavatgacha balandligi 3.3 m tashkil etadi. (poldan polgacha).

Turar-joy binosida 16 ta 1 xonali, 64 ta 2 xonali, jami 80 ta xonadon mavjud. (Bitta Blok uchun)

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari. (Bitta Blok uchun)

Qurilish maydoni - 824.95 m^2

Umumiy maydoni - 4270.87 m^2 ;

Xonadonning umumiy maydoni - 6546.62 m^2 ;

Qurilish hajmi 30248.0 m^3 ;

Yer osti avtoturargohi - murakkab shaklida bo'lib, rejada o'qlar oraliq o'lchami 89.13x42.7 m. 1-qavat balandligi - 4.75m; 2-qavat balandligi - 4.35m; (poldan polgacha), binoda avtomobillar qavatlarga ko'tarilib tushishi uchun panduslardan iborat.

Ichki pardoqlash:

Devorlar - yaxshilangan suvoq, tekislangan, fasad bo'yog'i bilan bo'yalgan.

Eshiklar - MDF, metal.

Darvozalar - avtomatik metaldan;

Shiftlar - suv emulsiyasi bilan bo'yalgan.

Pollar - quyma pol, silliqlangan betondan iborat.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Qurilish maydoni - 15358.9 m^2

Yerto'laning umumiy maydoni - 30717.8 m^2 ;

Qurilish hajmi - 139766.08 m^3 ;

3.3. Konstruktiv yechimlari.

Bino konstruktiv tizimi - fazoviy temirbeton bo'lgan diafragmalar bilan rama-bog'lovchili karkasda seysmik yuklar ishtrok etadi.

Poydevor - 1500mm qalinlikdagi quyma temirbeton plitadan, poydevor beton sinfi B25.

Poydevor osti tayyorlov qismi - 100mm qalinlikdagi betondan, beton sinfi B7.5.

Qattiklik diafragmalari - 400mm qalinlikda bo'lgan quyma temirbeton, beton sinfi B25.

Ustun - 500-500mm, 500-1000mm bo'lgan quyma temirbeton, beton sinfi B25.

Tusin - 600x500 quyma temirbeton beton sinfi B30.

Orayopmalar- qalinligi 180mm quyma temirbeton.

Zinapoya - quyma temirbeton beton sinfi B25.

Lift shaxtasi - qalinligi 200mm bo'lgan quyma temir betondan iborat.

Ichki devor- qalinligi 100mm, 150mm, 200mm, 300mm bo'lgan avtoklav gazablok markasi D500 dan iborat.

Devorlar va pardevorlar - yaxshilangan suvoq, tekislangan, fasad bo'yog'i bilan bo'yalgan. Nam xonalarda keramik plitalar bilan qoplangan.

Eshiklar - alyumin va MDF.

Oynalar - PVX.

Shiftlar - gipsokarton, suv emulsiyasi bilan bo'yalgan.

Pollar - quyma pol va keramik plitalardan iborat.

Tashqi pardoqlash:

Devorlar - issiqlik izolyatsiyalovchi mineral jun 50mm qalinlikda, yaxshilangan suvoq, suv emulsiyasi bilan bo'yalgan.

Paraped - tunikabond panel bilan qoplangan.

Eshik (kirish qismi) - metal.

Poypesh - granit plita bilan qoplangan.

Pandus bino atrofidagi yo'lakcha(otmostka) - betondan.

Tom issiqlik qoplamasi - polizol, sementli qum aralshmasi Vr3 setkasi bilan, keramzit 125mm, penapolistrol PCB-C 100mm qalinlikda, tekislovchi sementli qum aralshmasi bilan qoplangan.

Tom qismi - yassi tom, Sendvich panel basalt asosli.

3.4. Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- tashqi temirbeton devorlarning zichligi $\gamma=100 \text{ kg/m}^3$, qalinligi 50mm bo'lgan mineral jun plitalar bilan qoplangan.

- FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan.

- yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan va h.k.

3.5. Yong'in xavfsizligi.

Yong'in ga qarshiligi – III toifa.

Funktsional yong'in xavf turi – F1.3,

Konstruktiv yong'in xavf turi – C0.

Binoning javobgarlik sinfi – II

Loyihada qo'riqlash va yong'in xavfida xabar berish tizimi ko'zda tutilgan. Yong'inni o'chirish yong'in gidrantlaridan amalga oshiriladi. Bino atrofida o't o'chirish mashinalari uchun yo'laklar mavjud.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Bundan tashqari, binolar quyidagi muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, aloqa va signalizatsiya, suv ta'minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong'in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalashtirish topshirig'iga asosan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining (2022-yil 12-oktyabrdagi №53259-sonli xulosa);

- O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atrof-Muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi Toshkent shahar ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi (2022-yil 12-sentyabrda berilgan №01-01/04-1708-sonli Davlat ekologiya ekspertizasi xulosasi).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, muhandislik tarmoqlari, texnologik yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarorida belgilangan tartibga ko'ra "Nazorat o'lchovi" natijalari bo'yicha aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Buyurtmachi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabrdagi "Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-220-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida ushbu binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish shart.

6.6. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishinni ta'minlaydi.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman Oltintepa ko'chasi 166-uy manzilda joylashgan "Mavjud "g'isht zavodi" ob'ektini "ko'p qavatli turar-joy, apartament binolari, biznes markazi va savdo, maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi" sifatida ixtisoslashtirib qayta qurish" ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Axmedov Jalol Hikmatilloevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Suleymanov Esvet Devletovich, Raximova Kamolaxon Jahongir Qizi, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Musayev Rustam Talatovich, Maxmudov Sobir Rashidovich, Axmedov Jalol Hikmatilloevich